

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

SHUKUR XOLMIRZAYEV USLUBIDA RUHIY KECHINMA TASVIRI

Annotatsiya: Shukur Xolmirzayev asarlarida qahramon ichki dunyosining nozik, tabiiy va hayotiy ifodalanishi, psixologik tasvir vositalarining o'rni ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchining ruhiy holatlarni ochishda voqea rivoji, tafsilot va ichki monologlardan foydalanish mahorati yoritiladi. Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayev uslubining o'ziga xosligi, uning o'zbek nasrida psixologik realizmni boyitishdagi ahamiyati atroflicha asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: uslub, ruhiy kechinmalar, psixologik tasvir, ichki monolog, psixologik realizm, adabiyotshunoslik, badiiy uslub, o'zbek nasri, ruhiy holatlar, adabiy tahlil, yozuvchining mahorati.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ИЗОБРАЖЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО (ДУШЕВНОГО) ПЕРЕЖИВАНИЯ В СТИЛЕ ШУКУР ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация: В произведениях Шукура Холмирзаева раскрывается тонкое, естественное и жизненно правдивое изображение внутреннего мира героя, а также значение средств психологического изображения. Кроме того, освещается мастерство писателя в раскрытии душевных состояний через развитие событий, детали и внутренние монологи. В данной статье всесторонне обоснована самобытность стиля Шукура Холмирзаева и его значимость в обогащении психологического реализма в узбекской прозе.

Ключевые слова: стиль, душевные переживания, психологическое изображение, внутренний монолог, психологический реализм, литературоведение, художественный стиль, узбекская проза, душевные состояния, литературный анализ, мастерство писателя.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary
Education, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

THE DEPICTION OF INNER (PSYCHOLOGICAL) EXPERIENCE IN THE STYLE OF SHUKUR KHOLMIRZAEV

Abstract: In the works of Shukur Kholmiraev, a subtle, natural, and life-like portrayal of the protagonist's inner world is revealed, along with the role of psychological descriptive

techniques. The writer's mastery in conveying psychological states through the development of events, details, and internal monologues is also highlighted. This article comprehensively substantiates the distinctiveness of Shukur Kholmiraev's style and its significance in enriching psychological realism in Uzbek prose.

Keywords: style, inner experiences, psychological depiction, internal monologue, psychological realism, literary studies, artistic style, Uzbek prose, psychological states, literary analysis, writer's mastery.

Kirish.

Sukur Xolmirzayev — o'zbek adabiyotining salmoqli vakillaridan biri bo'lib, uning asarlari chuqur psixologik tahlil va ruhiy kechinmalarni o'zida mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Adibning badiiy uslubi, xususan, qahramonlarning ichki dunyosini ifodalashdagi yondashuvi, o'quvchiga zamon va makondan mustaqil, ma'naviy va ruhiy qiyofalarni kashf etish imkonini beradi. Yozuvchi asarlarida ruhiy kechinmalar va ichki monologlar orqali insonning ichki holatlari, ularning o'zgaruvchanligi va murakkabligi o'zining yorqin ifodasini topadi.

Adabiyotlar tahlili.

Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek adabiyotshunosligida turli tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, asosan uning badiiy uslubi, hayotiylik tamoyillari hamda psixologik tasvir mahoratiga alohida e'tibor qaratilgan. Adabiyotshunos olimlar yozuvchining asarlarini tahlil qilish jarayonida qahramon ruhiyati, ichki kechinmalar va ularning badiiy ifodasi masalasini yetakchi mezon sifatida baholaydilar.

Xususan, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida olib borilgan ilmiy izlanishlarda Shukur Xolmirzayev nasrining realizmga asoslanganligi, undagi psixologik chuqurlik va inson ruhiyatini tabiiy tasvirlash xususiyatlari ta'kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda yozuvchining hikoya va qissalarida ichki monolog, tafakkur oqimi, ramziy detallar orqali ruhiy holatlarning ochib berilishi tahlil qilingan. Bu holat adib ijodini psixologik realizm doirasida baholash imkonini beradi.

Shuningdek, Shukur Xolmirzayev ijodi o'zbek nasrida inson va jamiyat munosabatlarini ruhiy kechinmalar orqali yoritgan adiblar qatorida tilga olinadi. Tadqiqotchilar uning asarlarida sodda voqea tasviri ortida chuqur ma'naviy va ruhiy qatlamlar yashiringanini alohida qayd etadilar. Yozuvchining qahramonlari

ko‘pincha ichki iztirob, ikkilanma va hayotiy tanlovlar oldida tasvirlanib, bu holatlar badiiy psixologizm orqali ochib beriladi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar masalasi alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, mazkur mavzuni tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi.

Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasvirini o‘rganishda adabiyotshunoslikka xos nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Bunda adib asarlari yaxlit badiiy hodisa sifatida tahlil qilindi, ya’ni tahlil va sintez metodlari orqali Shukur Xolmirzayevning hikoya, qissa va romanlaridagi ruhiy kechinmalar alohida unsurlar sifatida ajratilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi. Qiyosiy-tipologik metod yordamida yozuvchining psixologik tasvir uslubi o‘zbek nasridagi boshqa adiblar ijodi bilan solishtirildi hamda Shukur Xolmirzayev uslubining o‘ziga xos jihatlari belgilandi. Shuningdek, badiiy matn tahlili metodi asosida qahramonlar ichki holatini ochib beruvchi vositalar — ichki monolog, psixologik tafsilot, ramziy detallar va voqea rivoji jarayonidagi ruhiy o‘zgarishlar o‘rganildi.

Shu bilan birga, psixologik tahlil elementlaridan foydalanilib, qahramon ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi va ularning hayotiy asoslari yoritildi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui Shukur Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasvirining badiiy-estetik ahamiyatini ilmiy asosda ochib berishga imkon yaratdi.

Tahlillar va natijalar.

Shukur Xolmirzayev asarlarida ruhiy kechinmalar tasviri yozuvchining badiiy uslubini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi adib asarlari bilan yaqindan tanishish jarayonida seziladi. Adib qahramon ruhiyatini ochishda tashqi voqealardan ko‘ra ichki holatlarga ustuvor ahamiyat beradi. Voqealar rivoji ko‘pincha qahramonning ichki kechinmalari, xotiralari va ruhiy iztiroblari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi. Bu esa asarlarda psixologik chuqurlik va hayotiylikni ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Shukur Xolmirzayev ruhiy kechinmalarni tasvirlashda ichki monolog va tafakkur oqimi usullaridan samarali foydalanadi. Qahramonlarning o'z-o'ziga murojaat qilishi, ichki savol-javoblari va sukut orqali ifodalangan holatlari ularning ruhiy holatini ochishda muhim badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, mayda detallar — tabiat manzaralari, oddiy buyumlar va kundalik holatlar orqali qahramon ruhiyatining aks ettirilishi yozuvchi uslubiga xos jihat sifatida namoyon bo'ladi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, adib asarlarida ruhiy kechinmalar individual xarakterga ega bo'lib, har bir qahramonning ichki olami o'ziga xos tarzda ochib beriladi. Yozuvchi keskin dramatik vaziyatlardan ko'ra, sokin, ammo ma'noli ruhiy holatlarni tasvirlashga moyil. Bu uslub o'quvchini qahramon bilan ichki muloqotga chorlaydi va uni mushohadaga undaydi.

Darhaqiqat, Shukur Xolmirzayev uslubi o'zbek nasrida psixologik realizmning muhim namunasini tashkil etadi. Adibning ruhiy kechinmalarni tabiiy, hayotiy va badiiy mukammal tasvirlash mahorati uning asarlarining estetik qiymatini oshiradi hamda o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini yoritish an'analarini boyitadi. Olingan natijalar yozuvchi ijodini yanada chuqurroq o'rganish va zamonaviy adabiyotshunoslik tadqiqotlarida foydalanish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Detal badiiy tasvirdagi muayyan bir kichik bo'lak (uzv) bo'lib, uning badiiy asar qurilmasini yuzaga keltirishda o'rni va ahamiyati nihoyatda muhim. Shukur Xolmirzayev hikoyalarini o'rganganimizda, detal uning ijodida muhim o'rin tutganligiga ishonch hosil qilamiz. Mazkur fikrni dalillash maqsadida uning 1960-yilda yozilgan "Notanish odam" hikoyasiga murojaat qilamiz. Hikoya yosh bir yigit, havaskor ovchi tilidan bayon qilingan. Bu asarda bir qancha detallar borki, ular asarning yetakchi badiiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan. Bulardan ayrimlarini ko'rib o'tamiz: "Jarga yaqinlashishim bilan shuvoq isi aralash tutun dimog'imga urildi"[5, 12]. Ushbu asarda ifodalangan asosiy fikr kamar (tog' yonbag'ridagi kichik g'orga o'xshash joy) ichida yoqilgan gulxan bilan bog'liq. Shu sababli hikoyadagi boshqa detallar ham birinchi tasvirga

bog‘lanib asardagi ustuvor nuqtayi nazarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuvoq bilan bog‘liq detalga kitobxon asar davomida yana duch keladi: “Nam shuvoq hidi anqiydi”. Bu endi kamar ichidagi tasvirga aloqador detal. Bu tasviriy uzvlarni muallif izohlamagan. U tasvirni detallashtiradi-yu, voqeaga aralashmaydi, ya’ni uni izohlamaydi. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan shuvoq bilan bog‘liq ikki detal (kamarda shuvoqning borligi va undan gulxan yoqilgani) bulut va yomg‘irga aloqador detallar bilan birlashib struktur-semiotik nuqtayi nazardan qaralganda yagona paradigmani yuzaga keltiradi: shuvoq isi aralash tutun – nam shuvoq hidi - cho‘ldan ko‘tarilgan bulut –kamar o‘rtasidagi gulxan - yomg‘ir quyishi – notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi. “Cho‘ldan ko‘tarilgan bulut” roviy nutqida berilmagan. U asardagi dialogda hikoya personajlaridan biri (noma’lum odam) tomonidan aytiladi. Bu hikoya matnidagi eng muhim detal bo‘lib, u nafaqat asardagi boshqa detallar, shuningdek, syujet strukturasi, ustuvor badiiy konsepsiya bilan chambarchas bog‘liq.

Asarning asosiy personaji, nomi ma’lum etilmagan qahramon (notanish odam)ning aytishicha, cho‘ldan ko‘tarilgan bulut “to‘kkan yomg‘ir ancha-muncha mahalda tinmaydi. Agar bulut tog‘dan pastlagan bo‘lsa, uning yo‘rig‘i boshqa edi”[5, 13]. Hikoyada roviy vazifasini ham bajaruvchi personaj hayotda hali yetarli tajribaga ega emas. Shu boisdan u cho‘l tarafdin kelayotgan bulutni ko‘rsa-da, unga ahamiyat bermagan, oqibatda yomg‘ir ostida qolib ust-boshi shalabbo bo‘ladi. Kamardagi suhbatdoshi unga aytganidek: “Shuni ko‘ra bilganingizda, ilgariroq o‘zingizni panaga tortardingiz, bunday qunishib o‘tirmasdingiz”[5, 13]. Bu mulohazalar kamardagi “qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuq, qirq yoshlardan oshgan baquvvat kishi” [5, 13] ning kuzatuvchan, tuyg‘un, xalq donoligini o‘z shaxsiyatida jamlagan, dono inson ekanligidan dalolat berib turadi. Ammo bu kichik hajmli asar mazkur personajning amaliy bilimining balandligini ko‘rsatish uchungina yozilmagan. Hikoyada yozuvchining yetakchi niyatini yuzaga chiqarishda “notanish odamning soy yoqasida shox-shabba terishi” bilan bog‘liq detal muhim ahamiyatga ega. Ushbu adabiy uzvning badiiy matn tarkibiga kiritilishi insonparvarlik asosiga ega milliy urf-odat bilan bog‘liq.

Shukur Xolmirzayev bir qancha asarlari, jumladan, “Qil ko‘prik” romanida mana shu ibratli odat haqida personajlar nutqi yoxud xotirasi orqali ma’lumot bergan. Ularda aytilishicha, mana shunaqa kamar yoki o‘rmon ichidagi kulbalarda hamisha o‘tin, tuz, gugurt kabi eng zarur narsalar ehtiyojtalablar uchun saqlab qo‘yilgan. Shu joylarga kelib dam olgan yoki tunab qolgan yo‘lovchilar ushbu zaxiradan foydalanganlar va va ularning o‘rnini to‘ldirib qo‘yganlar. Bunday qadimiy udum yozuvchiga juda kuchli ta’sir qilgan. Chunki u bu kabi an’anada buyuk insoniylik alomatlarini ko‘rgan.

Asar qahramoni (roviy) noma’lum odamning shiddatli yomg‘ir yog‘ayotgan paytda kamardagi gulxan yonida o‘tirishdan oldin soy yoqasiga suv allaqaylardan olib kelgan shox-shabballarni yugurib-yelib terishini ko‘radi. U bu odamning betgachoparliligi (yigitning jala ostida qolishi ilmsizligidan ekanligini darhol aytgani) uchun yoqtirmay qolgan edi. Shu sababga ko‘ra u “...pishiq odam. Bu o‘tinlarni uyiga olib ketadi. Eshagiyam tayyor”, - degan xayolga boradi. Ammo ko‘p o‘tmay uning odamoxunligi (gulxan yoniga o‘tirib yomg‘ir yog‘ishini tomosha qilishni taklif qilishi), mehmondo‘stligi (xurjindan olgan yog‘liq patir va qurutni birgalikda baham ko‘rishi) tufayli bu odam haqidagi fikri o‘zgaradi.

Badiiy adabiyotda detallar quyidagi tasvirlarga daxldor bo‘lishi mumkin: a) peyzaj. Sh.Xolmirzayevning nafaqat hikoyalari, balki butun ijodida tabiat tasviri (peyzaj) muhim o‘ringa ega. Shu boisdan ham uning ixcham epik asarlaridagi tabiat manzaralari tarkibida ko‘plab detallarni uchratish mumkin: “Bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog‘ardi” (“Ko‘ngil” hikoyasi). “O‘rtoq direktor xiyobondan sap-sariq barglarni qisir-qisir bosib hafsala bilan yurib keladilar” (“Bir ko‘rgan tanish” hikoyasi).

Birinchi parchadagi tasvirda detal qishga xos bo‘lgan bir alomat (tuman tufayli qorning siyrak va yumshoq yog‘ishi)ni kitobxon ko‘z o‘ngida aniq ta’sirli namoyon etgan bo‘lsa, ikkinchi tasvirdagi detal (xiyobondagi sap-sariq barglar) voqeaning kuz faslida ro‘y berganini obrazli tarzda ifoda etmoqda; b) portret: bunga misol biz dastavval tahlil etgan “Notanish odam” hikoyasida: qirg‘iz bashara, lekin qoshlari quyuk kishi” – inson badiiy suvrati tasviridagi kontrast

asosida qurilgan detal personajning o'ziga xos qiyofasini gavdalantirish ishiga xizmat qilgan; v) interyer – adabiyotshunoslikda ekspozitsiya deb ataladigan tasvir vositasiga taalluqlidir. Ekspozitsiyada biror-bir joy (xona, uy, hovli, ko'cha, maydon) badiiy ifoda etilsa, intyerer – yopiq binoning ichki tasviri. U “tor ma'noda binoning ichki hududi bo'lib, o'z ichiga shu hududga oid narsajihozlarni ham oladi”[8] Bunday tasvirning hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarda o'ziga xos o'rni bor.

Xulosalar.

Umuman olganda, Shukur Xolmirzayev ijodida ruhiy kechinmalar tasviri yozuvchining badiiy uslubini belgilovchi yetakchi jihatlardan biri ekanligi kuzatiladi. Adib asarlarida inson ruhiyati tashqi voqealar bilan uyg'un holda, ammo asosan ichki kechinmalar orqali ochib beriladi. Bu holat yozuvchining psixologik realizmga asoslangan ijodiy qarashlarini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Sh. Xolmirzayev uslubida ruhiy kechinmalar tasviri nafaqat adib ijodining muhim jihati, balki o'zbek adabiyotshunosligida psixologik tahlil yo'nalishini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mavzu hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.- 148 b.
- 2.Hamidova M.O.Shukur Kholmirezayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 3.Karimov H. Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti.- Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1999. -80 b.
- 4.Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asar o'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1999.-B. 497-511.
- 5.Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
- 6.Xolmirzayev Sh. Saylanma. 3-jild. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2013.
- 7.Shukurova B. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xarakterlar talqini// “Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani .- Jizzax, 2021. – 522 b.
- 8.<https://ru.wikipedia.org>.